




2020- yil yanvar-dekabr



2020- yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi


Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik

Dastlabki ma'lumotlar

- 2020- yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi **73,7** %ni tashkil etdi.
- Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **11,8** birlikni tashkil qildi.
- 2020- yilning yanvar - dekabrda **6 202** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **13,9** foizga ko'p.



2020- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda 2 480 ta, sanoatda 1 519 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 899 ta, qurilishda 438 ta, yashash va ovqatlanishda 242 ta, tashish va saqlashda 127 ta tashkil etilgan.

**Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning
asosiy ko'rsatkichlari**

	O'lchov birligi	2019- y.	2020- y.	Farqi (+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	21 461	26 531	5 070
Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	5 447	6 202	755
<i>Kichik tadbirkorlikning ulushlari:</i>				
YaHM	%	75,0	73,7	-1,3
Sanoat	%	76,6	50,0	-26,6
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	97,6	97,3	-0,3
Investitsiya	%	52,2	73,9	21,7
Qurilish	%	95,4	91,3	-4,1
Chakana savdo	%	86,8	90,4	3,6
Xizmatlar	%	66,3	65,8	-0,5
Yuk tashish	%	95,0	93,4	-1,6
Yuk aylanmasi	%	93,1	91,5	-1,6
Yo'lovchi tashish	%	96,5	97,8	1,3
Yo'lovchi aylanmasi	%	97,1	96,2	-0,9
Eksport	%	84,5	51,7	-32,8
Import	%	46,8	76,3	29,5



2020- yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHM va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da

**YaHM
73,7%**

**Savdo
90,4%**

**Sanoat
50,0%**

**Qurilish
91,3%**

**Investitsiya
73,9%**

**Export
51,7%**

**Xizmatlar
65,8%**


**Import
76,3%**

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	farqi (+;-)
Namangan viloyati	5 447	6 202	755
Namangan sh.	1 589	1 437	-152
<i>tumanlar:</i>			
Mingbuloq	303	339	36
Kosonsoy	341	369	28
Namangan	392	453	61
Norin	319	364	45
Pop	400	552	152
To'raqo'rg'on	347	485	138
Uychi	362	488	126
Uchqo'rg'on	386	422	36
Chortoq	306	404	98
Chust	434	507	73
Yangiqo'rg'on	268	382	114



2020- yil yanvar-dekabrda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da




2020 - yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Namangan shahri - 23,2 %, Pop tumani - 8,9 %, Chust tumani - 8,2 %, Uychi tumani - 7,9 %, To'raqo'rg'on tumani - 7,8 %, Namangan tumani - 7,3 %, Uchqo'rg'on tumani - 6,8 %, Chortoq tumani - 6,5 % hissalariga to'g'ri keldi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

	2019- y. yanvar-dekabr	2020- y. yanvar-dekabr	farq. (+;-)
Jami	5447	6202	755
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	400	899	499
Sanoat	1443	1519	76
Qurilish	464	438	-26
Savdo	2234	2480	246
Tashish va saqlash	201	127	-74
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	289	242	-47
Axborot va aloqa	72	102	30
Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	50	99	49
Boshqa faoliyat turlari	294	296	2

Ma'lumot uchun: 2020- yilning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'ringa ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda

	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	Farqi (+;-)
Namangan shahri	1589	1437	-152
Pop tumani	400	552	152
Chust tumani	434	507	73
Uychi tumani	362	488	126
To'raqo'rg'on tumani	347	485	138
Namangan tumani	392	453	61

2020 - yilning yanvar - dekabrda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi viloyat bo'yicha Namangan shahrida - , 1437 tani tashkil etdi.



Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda






2020 - yil yanvar - dekabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subektlarining soni har **1000** aholiga nisbatan 11,8 birlikni tashkil etdi.



O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-dekabr holatiga ko‘ra*




* *Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo‘shgan holda)*

2020- yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Namangan shahri va Namangan tumanida 14,3 birlik, Mingbuloq tumanida 13,5 birlik, Chust tumanida 12,5 birlikni tashkil etgan. Kosonsoy, To‘raqo‘rg‘on va Yangiq‘org‘on tumanlarida esa, ushbu ko‘rsatkich eng past bo‘lib 9,7 birlikka to‘g‘ri keldi.




2020– yilning yanvar-dekabrida hududlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*



* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



2020- yilning yanvar-dekabrida har 1000 aholiga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari soni eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda *



* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Namangan shahri va Namangan tumanida 14,3 birlik, Mingbuloq tumanida 13,5 birlik, Chust tumanida esa 12,5 birlikni tashkil etdi.



Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)

Eng yuqori ko'rsatkich

Namangan shahri va Namangan tumani
• 14,3 birlik.

O'rtacha ko'rsatkich

Chortoq tumani
11,7 birlik.

Eng past ko'rsatkich

Kosonsoy, To'raqo'rg'on va Yangiq'org'on tumanlari
• 9,7 birlik.



Kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushini pasayish dinamikasi, yanvar-dekabr holatiga ko'ra, % da

2020- yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi 73,7 % ni tashkil qildi. (2019- yilning yanvar-dekabrda 75,0 %).

YaHMning o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.

80,0%

2018- y.

75,0%


2019- y.

73,7%

2020- y.



Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)



2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning hududlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%) da

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Namangan viloyati	50,0	91,3	65,8	73,9
Namangan sh.	61,4	78,0	43,0	66,6
<i>tumanlar:</i>				
Mingbuloq	19,9	100,0	82,2	50,6
Kosonsoy	98,3	100,0	83,3	93,1
Namangan	45,4	100,0	77,1	77,0
Norin	28,5	100,0	83,1	85,0
Pop	48,9	72,9	71,9	58,7
To'raqo'rg'on	18,8	100,0	75,5	60,1
Uychi	69,5	97,8	80,2	88,1
Uchqo'rg'on	18,9	100,0	77,4	94,5
Chortoq	100,0	95,8	76,5	82,2
Chust	58,1	100,0	78,5	90,4
Yangiqo'rg'on	100,0	100,0	83,4	90,4

Hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:

Sanoatda-

Chortoq (100,0 %),
Yangiqo'rg'on (100,0 %),
Kosonsoy (98,3 %),
Uychi (69,5 %),
Namangan sh. (61,4 %)
va Chust (58,1 %) tumanlarida.


Qurilishda-

Mingbuloq (100,0 %),
Kosonsoy (100,0 %),
Namangan (100,0 %),
To'raqo'rg'on (100,0 %),
Uchqo'rg'on (100,0 %)
Chust (100,0 %) va
Yangiqo'rg'on (100 %) tumanlarida.


Xizmatlarda-

Yangiqo'rg'on (83,4 %),
Kosonsoy (83,3 %),
Norin (83,1 %),
Mingbuloq (82,2 %),
Uychi (80,2 %),
va Chust (78,5 %) tumanlarida

2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **195,3** million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining **51,7** % ini tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da




2020- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Kosonsoy va Yangiqo'rg'on tumanlarida – 100,0 %, Chortoq tumanida – 99,9 %, Namangan shahrida – 63,2 %, Pop tumanida – 63,1 % ni, eng past ko'rsatkich Uchqo'rg'on tumanida – 23,0 % ni tashkil etdi.

2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot(ishlar va xizmatlar) importining hajmi **376,4** million AQSh dollarini yoki umumiy importning **77,0** % ini tashkil etdi.



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da




2020- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Chortoq va Yangiqo'rg'on tumanlarida – 100,0 %, Kosonsoy tumanida – 99,4 %, Pop tumanida – 98,8 %, Norin tumanida – 91,7 %, Uychi tumanida – 88,3 %. Eng past ko'rsatkich Mingbuloq tumanida – 23,6 % ni tashkil etdi.




2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subektlari tomonidan **10950,8** milliard soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



2020- yilning yanvar-dekabrda hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Namangan shahri (4191,6 mlrd. soʻm), To'raqo'rg'on (1562,6 mlrd. soʻm), Namangan (938,4 mlrd. soʻm), Uchqo'rg'on (839,8 mlrd. soʻm) va Uychi (726,3 mlrd. soʻm) tumanlari hissasiga toʻgʻri keladi. Chortoq tumanida (181,3 mlrd. soʻm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past boʻlib qolmoqda.



2020- yil yanvar-dekabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi **50,0** foizni tashkil etdi.



2020- yil yanvar-dekabr holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Chortoq va Yangiqo'rg'on tumanlari (100%), Kosonsoy tumani (98,3 %), Uychi tumani (69,5 %), Namangan shahri (61,4 %) va Chust tumani (58,1 %) tashkil etdi. To'raqo'rg'on tumanida (18,8%) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.




2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **10422,4** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **90,4 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **106,4** foizni tashkil qildi.



2020- yilning yanvar- dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Namangan shahri (4537,4 mlrd. so'm), Pop (742,6 mlrd. so'm), Kosonsoy (674,6 mlrd. so'm), Norin (646,2 mlrd. so'm), Yangiqo'rg'on (633,3 mlrd. so'm) va To'raqo'rg'on (628,5 mlrd. so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi.



2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **4101,3** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **91,3** foizini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **108,7** foizni tashkil qildi.




2020- yilning yanvar- dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Namangan shahri (955,0 mlrd. so'm), Uychi (448,7 mlrd. so'm), Kosonsoy (390,8 mlrd. so'm), Namangan (344,6 mlrd. so'm), Chortoq (283,3 mlrd. so'm), To'raqo'rg'on (276,8 mlrd. so'm) hamda Chust (275,8 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.


2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan **5842,4** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **65,8** % ini tashkil qildi 2019- yilning yanvar-dekabriga nisbatan **101,7** % foizni tashkil qildi.



2020- yilning yanvar- dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati





Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Namangan shahri (1378,5 mlrd. so'm), Chust (481,6 mlrd. so'm), To'raqo'rg'on (463,6 mlrd. so'm), Kosonsoy (435,2 mlrd. so'm), Uychi (429,7 mlrd. so'm), Pop (426,0 mlrd. so'm) va Yangiyo'rg'on (402,9 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




2020- yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi **93,4** foizni tashkil etdi. 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **100,9** foizni tashkil qildi.

2020- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi **91,5** foizni tashkil etgan bo'lib, 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **104,0** foizni tashkil qildi.



2020- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi **97,8** foizni tashkil etib, bu esa 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **10,6** foizga pasayishiga olib keldi.

2020- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi **96,2** foizni tashkil etib, 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **10,7** foizga pasayish kuzatildi.






Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020-yil IV chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi mavjudlari bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **910** ta respondentlar ishtirok etdi.




2020-yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi*, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 4,3 % (39 ta), sanoatda – 25,5 % (232 ta), qurilishda – 8,5 % (77 ta) , savdoda – 35,6 % (324 ta), xizmatlar sohasida – 26,1% (238 ta) ni tashkil etdi.


** oxirgi yillik statistik hisobotga muvofiq, mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha.*



2020- yil IV chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo'lgan, kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2020- yil IV chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2020- yilning IV choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar ulushida barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha pasayish kuzatildi.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 25,4 punktga, sanoat sohasida 2,2 punktga, qurilishda 0,8 punktga, savdo sohasida 4,3 punktga, xizmatlar sohasida 4,8 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.

Joriy yilning IV choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda qurilishda 5,3 punktga, savdo sohasida 0,6 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 2,5 punktga, sanoat sohasida 0,6 punktga, xizmatlar sohasida 1,9 punktga kamayishi kuzatildi.



Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019-2020- yillar IV choragida iqtisodiy vaziyatini baholash, % da


Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Sanoat

Qurilish

Savdo


Xizmatlar




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2020- yil IV choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatni yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi sanoat sohasida 1,0 punktga o'sdi, qolgan barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaydi.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 2,6 punktga, qurilish korxonalarida 2,3 punktga, savdo sohasida 1,8 punktga, xizmatlar sohasida 1,2 punktga yaqin uch oyda ularning iqtisodiy vaziyati o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi o'sdi, sanoat korxonalarida 1,7 punktga kamaydi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 2,6 punktga, sanoat sohasida 0,7 punktga, savdoda 0,6 punktga, xizmatlar sohasida 1,3 punktga o'sdi.




Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019-2020- yillar IV choragida iqtisodiy vaziyatining yaqin uch oy uchun baholanishi, % da







2020- yilning IV choragi yakunlariga ko'ra yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi, unda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **105** ta respondentlar qatnashgan. Shundan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi - 16 ta (ishtirok etgan respondentlar umumiy sonining 15,2 %i), sanoat korxonalari – 24 ta (22,9 %), qurilish – 8 ta (7,6 %), savdo – 43 ta (41,0 %) va xizmatlarda – 14 ta (13,3 %) subyekt ishtirok etdi.




2020- yilning IV choragi bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da






2020- yilning IV choragi bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2020- yilning IV choragi bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, 2020- yilning IV choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar ulushida o'rmon va baliqchilik xo'jaligi korxonalarida 6,2 punktga o'sish, qolgan barcha faoliyat turlari bo'yicha pasayish kuzatildi.

Shu bilan birga, joriy yilning IV choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushida sanoat sohasida 11,3 punktga, savdo sohasida 0,6 punktga o'sish, qolgan barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha pasayish kuzatildi.

Joriy yilning IV choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi korxonalarida 12,5 punktga, sanoat sohasida 3,1 punktga, qurilishda 10,7 punktga, savdo sohasida 17,7 punktga va xizmatlar sohasida 28,0 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.



2019-2020- yillarning IV choragida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy vaziyatini baholash, % da


Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Sanoat

Qurilish

Savdo

Xizmatlar



■ qulay ■ qoniqarli ■ qoniqarsiz

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati kuzatuv natijalariga ko'ra, 2020- yilning IV choragini o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oy ichida iqtisodiy vaziyati yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaygan.

Shuningdek, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydagi iqtisodiy vaziyat o'tgan yilga nisbatan o'zgarmaydi deb hisoblagan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi korxonalarida 10,0 punktga, sanoatda 9,1 punktga, qurilishda 32,1 punktga, xizmatlar sohasida 41,2 punktga oshdi, savdo korxonalarida esa, 0,6 punktga kamaydi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyatni yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi korxonalarida 6,3 punktga, savdoda 2,3 punktga, xizmatlar sohasida 7,1 punktga oshdi.



2019-2020- yilning IV choragida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da


Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Sanoat

Qurilish

Savdo

Xizmatlar





**Namangan viloyati statistika boshqarmasi
Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,
tadbirkorlikni rivojlantirish
statistikasi bo'limi**

Tel.: (0369) 227-84-76